“ÖZKIMYOSANOAT” AJ: 2026-YILNING 9 OYIDA SANOAT IŞLAB ÇIQARIŞ KÖRSATKIÇLARI

// 03.11.2026
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/oezkimyosanoat-aj-2026-yilning-9-oyida-sanoat-islab-ciqaris-



2026-yilning yanvar–sentyabr oylarida ”Özkimyosanoat” AJ tizimida sanoat mahsulotlari işlab çiqariş hajmi **20,7 trln sömni** taşkil etdi. Bu belgilangan rejaga nisbatan **114,3 foiz, ötgan** yilning mos davriga nisbatan esa **110,2 foiz ösişni ta’minladi**.

Hisobot davrida jami **1 051,9 ming tonna mineral öğit** işlab çiqarildi.

Jumladan:

- 809,7 ming tonna azotli öğit;
- 85,4 ming tonna fosforli öğit;
- 156,9 ming tonna kaliyli öğit

Şuningdek, ötgan yilning mos davriga nisbatan boşqa turdagi kimyo mahsulotlari işlab çiqariş hajmida ham ösiş qayd etildi.

Xususan, avtomobil şinalari işlab çiqariş **146 ming donaga,** konveyer lentasi **16 ming pogon metrga,** superfosfat **113 ming** tonnaga, kaustik soda 8 ming tonnaga hamda **PVX 11 ming** tonnaga oşdi.

Mazkur körsatkiçlar ”Özkimyosanoat” AJ tizimida işlab çiqariş hajmlarini oşiriş, mahsulot turlarini kengaytiriş va tarmoqning işlab çiqariş salohiyatini mustahkamlaş borasidagi işlar izçil davom etayotganini

körsatadi.